

25-dars

Darsning mavzusi: Asos va qo'shimchalarni aniqlash

Darsning ta'limiy maqsadi: so'z, so'z tarkibi, asos va qo'shimchalarni aniqlash haqida ma'lumot berish, asosdan yangi so'z hosil qiluvchi qo'shimchalarni va so'zlarni o'zgartiruvchi qo'shimchalarni o'rgatish, qo'shimchalarni ajrata olish haqidagi ko'nikmalarni kengaytirish va o'stirib borish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni farqlaydi, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatib borish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; rostgo'ylik, o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini Darsning rivojlantiruvchi maqsadi dars.

Darsning metodi: suhbat, klaster, mustaqil ish metodi, ko'rgazmalilik, "O'yla va tez top!" o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan tarqatmalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish,
- davomatni aniqlash,
- o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Bilim baxt keltirar

Uyga berilgan 108-mashq ogʻzaki oʻqitish orqali tekshiriladi. Har bir ogʻzaki javob bergan oʻquvchining javobi birgalikda izohlab, mustahkamlab boriladi va ragʻbatlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

109-mashq. Ushbu gaplarda soʻz yasovchi va soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar ishtirok etgan soʻzlarni aniqlang.


Mashqning shartiga koʻra oʻquvchilar mustaqil bajaradilar va ogʻzaki tushuntirib beradilar.

110-mashq.

Shartiga koʻra yozma ravishda oʻquvchilar bajaradilar.

Asos va qoʻshimchalar tegishlicha belgilaydilar.

111-mashq. Berilgan qoʻshimchalarni nomlari aytiladi va ular yordamida soʻzlar hosil qilinadi.



Masalan: Gul, gulli, gulchi, gulsiz, gulla, gulzor.

112-mashq. Gaplar oʻqiladi. Mashq shartiga koʻra bajariladi.

1. Mehnatli non- shakar,
Mehnatsiz non-zahar.
2. Avval oʻyla, keyin soʻyla.
3. Doʻstsiz boshim- tuzsiz oshim.

“Oʻyla va tez top!”

**U yengil yoki ogʻir
boʻlishi mumkin. Lekin
massaga ega emas. U
nima?**



Berilgan topshiriqdan qaysi soʻz qoshimcha olgan aniqlang

IV. Darsga yakun yasash va baholash

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa.

113-mashq. Mashq sharti o'qiladi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning asos va qo'shimchalarni belgilash haqida ma'lumot beriladi.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!